Davlatimiz mukofotlari topshirildi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 8-dekabr kuni “Qishloq xo‘jaligi xodimlari kuni munosabati bilan soha rivojiga munosib hissa qo‘shgan yurtdoshlarimizdan bir guruhini mukofotlash to‘g‘risida”gi farmoniga muvofiq ko’p yillik fidokorona mehnati bilan mamlakatimizning iqtisodiy qudrati va eksport salohiyatini yanada mustahkamlash, qishloq xo’jaligi sohasi rivojini yangi bosqichga ko’tarish va uni kompleks modernizatsiya qilish, sohaga innovatsion texnologiyalar, zamonaviy ilm-fan yutuqlarini, klaster tizimini keng joriy etish, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, barcha turdagi qishloq xo’jaligi ekinlaridan yuqori va sifatli hosil yetishtirib, el-yurt farovonligini yuksaltirish, dasturxonlarimiz to’kinligini ta’minlashga qo’shgan munosib hissasi, agrar sektorda islohotlarni, davlat dasturlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish, ekin maydonlarining meliorativ holatini yaxshilash borasidagi katta xizmatlari hamda ijtimoiy hayotdagi faol ishtiroki uchun bir guruh yurtdoshlarimiz davlat mukofotlari – faxriy unvonlar, orden va medallar bilan taqdirlandi.

Shular qatorida, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Genetika va o‘simliklar eksperimental biologiyasi instituti laboratoriya mudiri, biologiya fanlari doktori, professor, Miradham Abzalov ham “Mehnat shuhrati” ordeni bilan taqdirlandi.

Shu o‘rinda barcha mukofotlanganlarni O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi nomidan ushbu yuksak mukofot bilan chin yurakdan qutlaymiz!